

**Murodov Nodirbek Oybek o'g'li,**

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti, Respublika "Kelajak" markazining "Maktab maslahatchilari faoliyatini muvofiqlashtirish" bo'limi bosh mutaxassisi

# MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA YOSHLARNING SIYOSIY ONGINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOYIY-PEDAGOGIK IMKONIYATLARNING SAMARADORLIGI

UDK: 32.019.51

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL\\_2026\\_ISSUE\\_1\\_6](https://doi.org/10.34920/so/vol_2026_issue_1_6)

## **MURODOV N.O-O'. MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA YOSHLARNING SIYOSIY ONGINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOYIY-PEDAGOGIK IMKONIYATLARNING SAMARADORLIGI**

Maqolada milliy qadriyatlar asosida yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Yoshlarda milliy g'oya, ma'naviyat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish yo'llari, ta'lim tizimida siyosiy madaniyatni rivojlantirishning zamonaviy usullari va pedagogik sharoitlari ochib berilgan. Milliy qadriyatlarga asoslangan holda yoshlar siyosiy ongini yuksaltirishda oila, ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlarining o'rnini ko'rsatib o'tilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: milliy qadriyatlar, siyosiy ong, yoshlar tarbiyasi, fuqarolik madaniyati, ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlar, ma'naviy tarbiya, vatanparvarlik.

## **MURODOV N.O-U. ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ В РАЗВИТИИ ПОЛИТИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ МОЛОДЕЖИ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ**

В статье анализируются социально-педагогические возможности развития политического сознания молодежи на основе национальных ценностей. Раскрываются пути формирования у молодежи национальной идеи, духовности и гражданской позиции, современные методы развития политической культуры в системе образования и педагогические условия. Показана роль семьи, образовательных учреждений и общественных организаций в повышении политического сознания молодежи на основе национальных ценностей.

Ключевые слова: национальные ценности, политическое сознание, воспитание молодежи, гражданская культура, социально-педагогические возможности, духовное воспитание, патриотизм.

## **MURODOV N.O-U. THE EFFECTIVENESS OF SOCIAL-PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES IN DEVELOPING YOUTH POLITICAL CONSCIOUSNESS BASED ON NATIONAL VALUES**

The article analyzes the social-pedagogical opportunities for developing youth political consciousness based on national values. It reveals the ways of forming national ideas, spirituality, and civic position among young people, modern methods of developing political culture in the education system, and pedagogical conditions. The role of family, educational institutions, and public organizations in enhancing youth political consciousness based on national values is demonstrated.

Key words: national values, political consciousness, youth education, civic culture, social-pedagogical opportunities, spiritual education, patriotism.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatimizda milliy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish, yoshlarni vatanparvarlik va fuqarolik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da yoshlar siyosatini takomillashtirish, ularning ma'naviy-axloqiy qiyofasini yuksaltirish, milliy g'oya va qadriyatlarga sodiqligini mustahkamlash alohida ta'kidlangan<sup>1</sup>.

Hozirgi kunda globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan sharoitda yoshlarning milliy o'zlikni anglashi, o'z tarixi, madaniyati va qadriyatlariga sadoqatli bo'lishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy qadriyatlar – bu xalqning asrlar davomida shakllantirib kelgan ma'naviy boyligi, axloqiy me'yorlari, urf-odatlar va an'analardir. Ushbu qadriyatlarga asoslangan holda yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirish fuqaro jamiyati barpo etishning muhim sharti hisoblanadi<sup>2</sup>. Siyosiy ong – bu shaxsning davlat va jamiyat hayotidagi siyosiy jarayonlarga munosabati, fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy faoliyati va mas'uliyat tuyg'usining majmuasidir. Yoshlarda siyosiy ongning shakllanishi ularning jamiyat rivojida faol ishtirokini, vatanparvarlik va milliy g'urur tuyg'ularini, demokratik qadriyatlarga sodiqligini ta'minlaydi. Bu jarayon faqat nazariy bilimlar berishdan emas, balki amaliy faoliyat, ijtimoiy tajriba orqali amalga oshiriladi<sup>3</sup>.

Ushbu muammoni tadqiq etishning dolzarbligi bir qator omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, zamonaviy yoshlar tez sur'atlarda rivojlanayotgan axborot va texnologik o'zgarishlar davrida yashayapti, bu esa qadriyatlarni uzatishning an'anaviy mexanizmlarini jiddiy sinovdan o'tkazmoqda. Turli xil, ko'pincha bir-biriga zid g'oya va konsepsiyalar bilan to'lgan axborot maydoni milliy o'zlikni anglashning zaiflanishi va tarixiy ildizlar bilan aloqaning susayishi uchun sharoit yaratmoqda.

Ikkinchidan, globallashuv sharoitida milliy identifiklik va madaniy xilma-xillikni saqlash muammosi o'tkir tus olmoqda. Yoshlar bir

tomondan, jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lsalar, boshqa tomondan, begona madaniy ta'sirlar ta'sirida milliy qadriyatlardan uzoqlashish xavfi mavjud. Shu sababli, milliy qadriyatlar va zamonaviylik o'rtasida muvozanatni ta'minlash, yoshlarda milliy o'zligini anglash va jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv qobiliyatini bir vaqtning o'zida rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Uchinchidan, mustaqillik yillarida O'zbekistonda demokratik islohotlar amalga oshirilayotgan, fuqaro jamiyati institutlari shakllanayotgan sharoitda yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishga tayyorlash zaruriyati ortmoqda. Yoshlar nafaqat kelajak saylovchilar, balki jamiyat taraqqiyotining faol subyektlari, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning ishtirokchilari sifatida namoyon bo'lishlari lozim.

To'rtinchidan, oila, ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlarining yoshlar tarbiyasidagi o'rnini kuchaytirish, ularning samarali hamkorligini ta'minlash zarurati mavjud. Har bir ijtimoiy institut o'zining o'ziga xos pedagogik imkoniyatlariga ega bo'lib, ularning maqsadli integratsiyasi yoshlarda mustahkam siyosiy ong shakllantirishning kafolati bo'ladi.

Beshinchidan, yoshlar tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligini ta'minlash masalasi dolzarbdir. Milliy qadriyatlar – vatanparvarlik, mehr-oqibatlilik, katta-kichikka hurmat, mehnatsevarlik, halollik kabi fazilatlar umuminsoniy axloqiy tamoyillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, yoshlarni har tomonlama yetuk, ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Oltinchidan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion ta'lim usullari va raqamli vositalardan foydalangan holda yoshlar siyosiy ongini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi. An'anaviy ta'lim shakllari bilan birga interfaol, loyiha asosidagi va amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvlarni qo'llash yoshlar orasida katta qiziqish uyg'otadi va bilimlarning chuqur o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, milliy qadriyatlar asosida yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirishda ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarning samaradorligini o'rganish nazariy va amaliy jihatdan muhim

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2022. – 416 b.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 173 b.

<sup>3</sup> Erkayev A. Ma'naviyat yulduzlari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 256 b.

ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy O'zbekiston jamiyatining rivojlanish ehtiyojlariga javob beradi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Hozirgi zamon talablari yoshlarning siyosiy ongi va ma'naviy qiyofasiga yangicha yondashuvni taqozo etmoqda. Globallashuv sharoitida yoshlarga turli ma'naviy va mafkuraviy ta'sirlar kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa milliy qadriyatlarga asoslangan holda yoshlarning siyosiy onginini mustahkamlashning dolzarbligini oshiradi. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar yoshlarning faol fuqarolik pozitsiyasini, siyosiy madaniyatini rivojlantirishni talab qilmoqda.

Ta'lim tizimida yoshlarning siyosiy onginini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari yetarlicha o'rganilmaganligi, milliy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uyg'unlashtirish mexanizmlarining takomillashtirishga muhtojligi, oila, ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorligini kuchaytirish zarurligi mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi<sup>1</sup>.

**Tadqiqotning maqsadi.** Milliy qadriyatlar asosida yoshlarning siyosiy onginini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, ularning samaradorligini oshirish yo'llari va usullarini ishlab chiqish, ta'lim jarayonida qo'llash uchun amaliy tavsiyalar berish maqsad qilib qo'yilgan.

**Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili.** Xorijiy mamlakatlarda yoshlarning siyosiy madaniyatini shakllantirish masalalari J.Piaje, L.Kolberg, E.Erikson, A.Maslou kabi olimlarning tadqiqotlarida o'rganilgan. Ular shaxs rivojlanishida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining ahamiyatini asoslab berganlar. Amerika olimlari S.Xantington, R.Inglxart siyosiy madaniyat va qadriyatlar tizimining jamiyat rivojidadagi o'rnini tahlil qilganlar.

Rossiya olimlari B.S.Gershunskiy, G.N.Filonov, I.F.Xarlamov, N.D.Nikandrov va boshqalar yoshlarning fuqarolik va vatanparvarlik tarbiyasini takomillashtirish masalarini tadqiq qilganlar. Ularning ishlarida milliy qadriyatlar asosida shaxs tarbiyasining metodologik asoslari ishlab chiqilgan<sup>2</sup>.

O'zbekistonda Z.T.Nishonova, M.Sodiqov, I.Ergashev, N.Jo'rayev, G.Tulenova, Sh.Abdullayeva kabi olimlar yoshlarning siyosiy madaniyatini, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashni o'rganganlar. Ammo milliy qadriyatlar asosida yoshlarning siyosiy onginini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari yetarlicha tadqiq qilinmagan, bu sohadagi ilmiy izlanishlar davom ettirilishi zarurdir<sup>3</sup>.

**Maqolaning ilmiy mohiyati.** Maqolaning ilmiy mohiyati shundan iboratki, milliy qadriyatlar asosida yoshlarning siyosiy onginini rivojlantirishda ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarning mazmuni, shakllari va usullari aniqlangan, ularning samaradorligini oshirish yo'llari ilmiy jihatdan asoslangan. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarning yoshlar siyosiy ongiga ta'siri tahlil qilingan va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning obyekti.** Oliy ta'lim muassasalari va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar asosida yoshlarning siyosiy onginini rivojlantirish jarayoni tadqiqot obyekti sifatida tanlandi.

**Tadqiqotda qo'llanilgan usullar.** Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy-mantiqiy tahlil, anketa so'rovnomalari, pedagogik kuzatish, ekspert baholash, statistik tahlil usullaridan foydalanildi<sup>4</sup>.

**Asosiy qism.** Milliy qadriyatlar – bu xalqning tarixiy-madaniy merosidan kelib chiqqan, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan, jamiyatning ma'naviy hayotini belgilovchi, uning ijtimoiy-siyosiy rivojlanishiga yo'naltiruvchi qadriyatlar tizimidir. Milliy qadriyatlar xalqning uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida shakllangan kollektiv tajriba, donolik va hikmatning ifodasi bo'lib, jamiyat a'zolarining xulq-atvorini tartibga soluvchi, ularning dunyoqarashini belgilovchi va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida yo'l-yo'riq beruvchi me'yorlar majmuasini tashkil etadi. O'zbek xalqining milliy qadriyatlari o'zining boy mazmuni va chuqur ijtimoiy-axloqiy mohiyati bilan ajralib turadi. Ushbu qadriyatlar tizimida insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, adolatlilik, kamtarlik, saxiylik, kattalarni hurmat qilish va yosh avlodga g'amxo'rlik qilish, oilani e'zozlash

<sup>1</sup> Nishonova Z.T. Yoshlarning siyosiy madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2020. – 248 b.

<sup>2</sup> Sodiqov M., Ergashev I. Milliy g'oya va ma'naviyat. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 312 b.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, O'RB-406-son. URL: <https://lex.uz/docs/-3026246>

<sup>4</sup> Xasanov A.N., Qosimova D.M. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: Fan, 2021. – 320 b.

va avaylab-asrash, tinch-totuv yashash, ilm-fan va bilimga intilish, ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik va tolerantlik kabi fazilatlar muhim o'rin tutadi<sup>1</sup>. Siyosiy ong esa shaxsning davlat va jamiyat hayotidagi siyosiy jarayonlarga o'rinli munosabati, siyosiy bilim va tushunchalar tizimi, fuqarolik huquq va majburiyatlarini anglashi, demokratik qadriyatlarga sodiqligi, ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usi, siyosiy faollik va ishtirokchilik qobiliyatining dialektik birligi sifatida namoyon bo'ladigan murakkab ijtimoiy-psixologik hodisadir. Yoshlarda siyosiy ongning rivojlanishi ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga, fuqaro sifatida shakllanishiga, vatanparvarlik va milliy g'urur hissiyotlarini mustahkamlashga, demokratik qadriyatlarni qabul qilishga, ijtimoiy mas'uliyat va huquqiy madaniyatni o'zlashtirishga xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar va siyosiy ong o'rtasida uzviy, dialektik bog'liqlik mavjud. Milliy qadriyatlarga asoslangan siyosiy ong yoshlarda o'z yurtiga sadoqat, vatanparvarlik, milliy manfaatlarni himoya qilish, milliy mafkuraga sodiqlik, ijtimoiy adolat tuyg'usi, davlat va jamiyat oldida fuqarolik mas'uliyati kabi fazilatlarini yuzaga keltiradi va mustahkamlaydi. Shu ma'noda, milliy qadriyatlar siyosiy ongning ma'naviy asosi, mazmun-mohiyatini belgilovchi omil, uning milliy o'ziga xosligini ta'minlovchi manba hisoblanadi. Milliy qadriyatlar asosida shakllangan siyosiy ong yoshlarda milliy manfaatlarni ustuvor qo'yish va ularni himoya qilish qobiliyati, tarixiy xotira va milliy identifiklikni saqlash, vatanparvarlik va yurtparvarlik tuyg'ularining kuchli namoyon bo'lishi, milliy istiqloq va davlat suverenitetini qadrlash, umuminsoniy qadriyatlar bilan milliy qadriyatlarning uyg'unlashishi, ijtimoiy adolat va insonparvarlik g'oyalariga sodiqlik kabi xususiyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi<sup>2</sup>.

Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirishda quyidagi ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlar muhim ahamiyatga ega va ularning tizimli, maqsadga yo'naltirilgan qo'llanilishi samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Birinchidan, oila ta'lim-tarbiyasining imkoniyatlari – oila bola tarbiyasining birinchi va asosiy ijtimoiy muhiti, shaxs shakllanishining boshlang'ich maskanidir. Oilada milliy urf-odatlar,

an'analar, qadriyatlar avloddan-avlodga uzluksiz o'tadi va bolaning shaxsiyatiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Oilaning pedagogik imkoniyatlari uning bevosita ta'sir mexanizmi, oila a'zolari o'rtasidagi hissiy bog'liqlik, doimiylik va uzluksizlik kabi o'ziga xos xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Ota-onalarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalashi, milliy tarix va madaniyatni o'rgatishi, oilaviy an'analarni asrab-avaylashi, milliy bayram va marosimlarni nishonlashi bolalarning siyosiy ongini shakllantirishning mustahkam asosini tashkil etadi.

Ikkinchidan, ta'lim tizimining imkoniyatlari – maktab, kollej, litsey va oliy ta'lim muassasalari yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirishning markaziy institutlari hisoblanadi. Ta'lim tizimining pedagogik imkoniyatlari maqsadli o'quv dasturlari ("Ma'naviyat va ma'rifat", "Vatanparvarlik", "Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlari"), interfaol ta'lim usullari (loyiha usuli, keys-stadi, debat va munozaralar, rolli o'yinlar), darsdan tashqari ishlar (turli to'garak va klublarda faoliyat, talabalar ilmiy anjumanlari, tanlovlar va olimpiadalar, ekskursiyalar), axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, talabalar o'zini o'zi boshqaruv organlari orqali namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida nazariy bilimlar bilan amaliy mashg'ulotlarning nisbati optimal bo'lishi, yoshlarga nafaqat bilim berilishi, balki ularda tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va baholash, o'z nuqtai nazarini asoslash va himoya qilish, jamoada ishlash, muammolarni hal qilish kabi amaliy ko'nikmalar shakllantirilishi zarur<sup>3</sup>.

Uchinchidan, jamoat tashkilotlarining imkoniyatlari – "Kamolot" yoshlar harakati, "Qizlar" ayollar jamoat birlashmasi, "Barkamol avlod" uyushmasi, "Muruvvat" xayriya jamoat fondi, yoshlar parlamenti, talabalar ittifoqi kabi yoshlar va jamoat tashkilotlari yoshlarni ijtimoiy-siyosiy faoliyatga jalb qilish, ularning fuqarolik faolligini oshirish, liderlik sifatlarini rivojlantirish, ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usini shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega. Bu tashkilotlar yoshlarni ixtiyoriy (volontyorlik) faoliyatga, xayriya aksiyalariga, ekologik va ijtimoiy loyihalarga jalb qiladi, ularda tashabbuskorlik, tashkilotchilik qobiliyatlari, siyosiy bilim va amaliy tajriba rivojlanishiga yordam beradi.

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davr talabi. "Xalq so'zi", 2022-yil 29-iyun.

<sup>2</sup> Jo'rayev N.B. Milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 224 b.

<sup>3</sup> Tulenova G.D. Fuqarolik jamiyati shakllanishida yoshlarning o'rni // Pedagogika, 2021. 4-son. – B. 45-52.

To'rtinchidan, ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlari – teleko'rsatuvlar va radio eshittirishlar, matbuot nashrlari, internet-saytlar va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda, ularning siyosiy ongiga ta'sir ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Milliy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi dasturlar, tarixiy voqealar va milliy qahramonlar haqidagi materiallar, ijtimoiy-siyosiy tahliliy dasturlar, ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat yoshlarning milliy ongini uyg'otishga, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Beshinchidan, madaniy-ma'rifiy muassasalarning imkoniyatlari – muzeylar, kutubxonalar, teatrlar, konsert zallari, madaniyat uylari, tarixiy-memorial majmualar yoshlarni milliy tarix, madaniyat va san'at bilan tanishtirishning eng samarali vositalari hisoblanadi. Tarixiy yodgorliklarga ekskursiyalar, milliy bayramlar va an'analarni nishonlash yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini, milliy g'urur hissini kuchaytiradi<sup>1</sup>. Tadqiqot doirasida 2023-2024 o'quv yilida Toshkent shahri, Samarqand, Buxoro, Andijon viloyatlarining 15 ta oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan 1200 nafar talaba orasida o'tkazilgan anketa so'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarning 78 foizi o'zini milliy qadriyatlarga sodiq deb hisoblaydi, 68 foizi mamlakatdagi siyosiy jarayonlarni muntazam yoki vaqti-vaqti bilan kuzatib boradi, 55 foizi ijtimoiy-siyosiy tadbirlarda ishtirok etishga tayyor ekanliklarini bildirdi. Shu bilan birga, tadqiqotning muammoli natijalari shundan iboratki, talabalarning atigi 42 foizi o'z fuqarolik huquq va majburiyatlarini to'liq bilishlarini, 36 foizi mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy partiya va harakatlarning dasturlari va faoliyati haqida ma'lumotga ega ekanliklarini ma'lum qildilar. Bu esa yoshlarning siyosiy savodxonligini oshirish, ularga tizimli siyosiy bilim berish, huquqiy madaniyatini rivojlantirish, siyosiy jarayonlarga faol jalb qilish zarurligini ko'rsatadi. Milliy qadriyatlar asosida yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirishning samaradorligini oshirish uchun quyidagi pedagogik sharoitlarni ta'minlash zarur. Birinchidan, ta'lim mazmunini milliy qadriyatlar bilan boyitish, o'quv dasturlariga milliy tarix, madaniyat, adabiyot, san'at, falsafa bo'yicha yangi mavzular kiritish, mavjud fanlarning mazmunini milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhida qayta

ko'rib chiqish lozim. Ikkinchidan, interfaol va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash – loyiha usuli, keys-stadi (amaliy vaziyatlarni tahlil qilish), debat va munozaralar, rolli o'yinlar, simulyatsiya o'yinlari, braynstorming, SWOT-tahlil va boshqa zamonaviy usullar orqali yoshlar faolligini oshirish va bilimlarning chuqur o'zlashtirilishini ta'minlash zarur. Uchinchidan, yoshlarni ixtiyoriy faoliyatga, jamoat ishlariga faol jalb qilish, ularga amaliy tajriba orttirish imkoniyatini berish – ijtimoiy xizmat ko'rsatish, xayriya aksiyalari, ekologik tadbirlar, tadqiqot faoliyati, davlat organlari va jamoat tashkilotlarida stajirovkalar o'tash orqali yoshlarda ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega<sup>2</sup>.

To'rtinchidan, oila, ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorligini kuchaytirish, bir butun tarbiya tizimini shakllantirish – ota-onalar bilan muntazam uchrashuv va maslahatlar, ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlari o'rtasida hamkorlik shartnomalarini tuzish, qo'shma tadbirlar rejasini ishlab chiqish orqali barcha ijtimoiy institutlarning muvofiqlashtirilgan faoliyatini ta'minlash zarur. Beshinchidan, yoshlarga namuna bo'ladigan shaxslar – tarixiy qahramonlar (Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi), olimlar va ziyolilar (Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy), zamonaviy namunalar bilan tanishishni tashkil etish, mentorlik tizimini joriy etish yoshlarda ijobiy qiyofalar yaratishga xizmat qiladi. Oltinchidan, siyosiy madaniyat va qadriyatlarni targ'ib qiluvchi kitob, broshyura, videomateriallar, raqamli platformalar, infografikalar yaratish va tarqatish, yoshlar uchun qiziqarli va tushunarli formatda ma'lumotlar taqdim etish orqali ularning siyosiy savodxonligini oshirish dolzarbdir. Yuqorida sanab o'tilgan pedagogik sharoitlar va mexanizmlarning tizimli, izchil qo'llanilishi milliy qadriyatlar asosida yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirishning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, yoshlarni faol, mas'uliyatli, vatanparvar fuqarolar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

**Xulosa.** O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, milliy qadriyatlar asosida yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari keng va ko'p qirrali xarakterga ega. Oila, ta'lim muassasalari,

<sup>1</sup> Abdullayeva Sh.A. Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 180 b.

<sup>2</sup> Toshmatov Sh.S. Milliy g'oya va mafkura asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 283.

jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va madaniy-ma'rifiy muassasalar o'zaro hamkorlikda, muvofiqlashtirilgan tarzda faoliyat yuritganda yoshlar siyosiy ongining yuqori darajada rivojlanishiga, ularning faol, mas'uliyatli, vatanparvar fuqarolar sifatida shakllanishiga erishish mumkin. Bu ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarning har biri o'zining spesifik xususiyatlari, kuchli tomonlari va ta'sir mexanizmlariga ega bo'lib, ularning tizimli integratsiyasi eng yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Tadqiqot jarayonida o'rganilgan nazariy manbalar, o'tkazilgan empirik tadqiqotlar, amaliy tajribalarni umumlashtirish asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

Birinchiidan, milliy qadriyatlar yoshlarning siyosiy ongini shakllantirishning mustahkam ma'naviy asosi, uning milliy o'ziga xosligini belgilovchi omil hisoblanadi. Vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, adolatlilik, ilm-fanga intilish, bag'rikenglik, kattalarni hurmat qilish, oilani e'zozlash kabi qadriyatlarga asoslangan siyosiy ong yoshlarda davlat va jamiyat oldida mas'uliyat tuyg'usini, fuqarolik faolligini, milliy g'oya va mafkuraga sodiqlikni, ijtimoiy adolat va huquq-qonunchilikka hurmatni yuzaga keltiradi. Milliy qadriyatlar va siyosiy ong o'rtasidagi uzviy dialektik bog'liqlik yoshlarning shaxsiy rivojlanishi bilan jamiyat taraqqiyotini, milliy identifiklikni saqlash bilan jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvni uyg'unlashtirish imkoniyatini beradi.

Ikkinchiidan, o'tkazilgan empirik tadqiqot natijalari yoshlarning aksariyati milliy qadriyatlarga sodiq, siyosiy jarayonlarni qiziqish bilan kuzatib borishi va ijtimoiy faollikka moyilligini ko'rsatdi. Biroq, yoshlarning siyosiy savodxonligi, xususan fuqarolik huquq va majburiyatlarini bilish, siyosiy institutlar va partiyalar faoliyatidan xabardor bo'lish darajasi hali ham yetarli emas. Tadqiqotda qatnashgan talabalarning 42 foizi fuqarolik huquq va majburiyatlarini to'liq bilishi, 36 foizi siyosiy partiyalar faoliyatidan xabardor bo'lishi yoshlarga tizimli siyosiy ta'lim berish, ularning huquqiy madaniyatini oshirish, siyosiy jarayonlarga faol jalb qilish zarurligini tasdiqlaydi.

Uchinchiidan, yoshlarning siyosiy savodxonligini oshirish, ularga tizimli va sifatli siyosiy bilim berish, amaliy siyosiy tajriba orttirish imkoniyatini yaratish zamonaviy davr talabi, mamlakatimizda

olib borilayotgan keng qamrovli demokratik islohotlarning muhim tarkibiy qismidir. Yoshlar – kelajakda mamlakatni boshqaradigan, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchilari bo'ladigan kuch sifatida bugundan siyosiy jihatdan saviyali, mas'uliyatli, fuqarolik faolligiga ega bo'lishlari zarur. Buning uchun ta'lim mazmunini milliy qadriyatlar va zamonaviy demokratik tamoyillar asosida takomillashtirish, interfaol va innovatsion pedagogik texnologiyalarni kengroq qo'llash, nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash, oila va jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorligini tizimli ravishda kuchaytirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

To'rtinchidan, milliy qadriyatlar asosida yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirishning samaradorligi bir qator pedagogik sharoitlarning ta'minlanishiga bog'liq. Tadqiqot natijalari ta'lim dasturlarini milliy qadriyatlar bilan boyitish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan (loyiha usuli, keys-stadi, debat, rolli o'yinlar) foydalanish, yoshlarni amaliy faoliyatga jalb qilish, barcha ijtimoiy institutlarning hamkorligini ta'minlash, namuna shaxslar bilan tanishtirishning muhimligini ko'rsatdi. Shuningdek, yoshlar uchun siyosiy bilimlarni qiziqarli, tushunarli va hayotiy dolzarb shaklda taqdim etish, ularning faol ishtirokini ta'minlovchi interfaol usullardan foydalanish zarur.

Beshinchidan, globallashtirish va axborotlashuv sharoitida yoshlarning milliy qadriyatlarga sodiqligini saqlash va mustahkamlash, ularni begona g'oyaviy oqimlar, ekstremizm va radikalizm xavfidan himoya qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy qadriyatlarga asoslangan mustahkam siyosiy ong yoshlarda tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va baholash, to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi, ularni mafkuraviy immunitetga ega qiladi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar va umuminsoniy qadriyatlarining uyg'unligi yoshlarni global fikrlovchi, lekin milliy ildizlariga sodiq shaxslar sifatida tarbiyalashga imkon beradi.

Oltinchidan, yoshlar siyosiy ongini rivojlantirishda barcha ijtimoiy institutlarning – oila, maktab, oliy ta'lim muassasalari, jamoat tashkilotlari, OAV, madaniy-ma'rifiy muassasalar – o'ziga xos pedagogik imkoniyatlari va roli mavjud. Biroq, bu institutlarning yakka tartibdagi faoliyati emas, balki ularning maqsadli hamkorligi, bir-birini to'ldiruvchi va boyituvchi birgalikdagi ishi eng yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Oila mil-

liy qadriyatlarning birinchi va eng kuchli manbayi, ta'lim muassasalari tizimli bilim va ko'nikmalar beruvchi markaz, jamoat tashkilotlari amaliy tajriba orttirish maydoni, OAV va madaniy muassasalar esa keng qamrovli ta'sir vositasi sifatida faoliyat yuritib, yagona tarbiya tizimini tashkil etishlari lozim.

Yettinchidan, yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirish bir martalik aksiya yoki qisqa muddatli kampaniya emas, balki uzoq muddatli, izchil, tizimli jarayon hisoblanadi. Bu jarayon yoshlarning yoshiga, psixologik xususiyatlariga, ta'lim darajasiga mos ravishda bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, doimiy monitoring va baholash asosida takomillashtirib borilishi zarur. Maktabdan boshlab oliy ta'lim muassasalarigacha davom etadigan uzluksiz tarbiya tizimi, yoshlarning har bir rivojlanish bosqichida siyosiy ong darajasini oshirib borish tamoyili asosida qurilishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida bayon etilgan nazariy xulosalar va tadqiqot natijalari asosida amaliyotga tatbiq etish uchun quyidagi **takliflarni** ilgari suramiz:

1. Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar va siyosiy madaniyat bo'yicha maxsus kurslar kiritish, o'quv dasturlarini takomillashtirish. Mavjud "Ma'naviyat va ma'rifat", "Vatanparvarlik" kabi fanlarning mazmunini boyitish, yangi mavzular – "Milliy qadriyatlar va zamonaviylik", "Fuqaro jamiyati va demokratiya", "Siyosiy liderlik asoslari", "Media savodxonligi va tanqidiy fikrlash" – kiritish lozim. Shuningdek, gumanitar fanlarning barchasida milliy qadriyatlar va siyosiy madaniyat masalalari integratsiyalashgan holda o'qitilishi, interdisciplinar yondashuvning qo'llanilishi zarur.

2. Yoshlar uchun siyosiy klublar, diskussiya maydonlari, debat-klublar, davra suhbatlari tashkil etish, ularni jamiyat hayotidagi dolzarb siyosiy jarayonlarni muhokama qilishga faol jalb qilish. Har bir oliy ta'lim muassasasida yoshlar siyosiy klubi, fuqarolik forumi, demokratiya maktabi kabi tuzilmalar tashkil etilishi, bu yerda yoshlar erkin fikr almashishi, turli nuqtai nazarlarni tinglashi va o'z pozitsiyasini shakllantirishi uchun sharoit yaratilishi maqsadga muvofiq. Bunday klublar faoliyatiga siyosatshunos olimlar, davlat xizmatchilari, siyosiy partiyalar vakillari, tajribali jurnalistlarni jalb qilish muhim ahamiyatga egadir.

3. Oila va maktab (oliy ta'lim muassasasi) ning hamkorligini muntazam va tizimli ravishda

kuchaytirish, ota-onalar uchun pedagogik ma'lumotnoma darslar, seminarlar, treninglar o'tkazish. Ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, ularga zamonaviy tarbiya usullari, yoshlarning psixologik xususiyatlari, milliy qadriyatlarni oila muhitida singdirish yo'llari bo'yicha bilim berish zarur. Oila va ta'lim muassasalari o'rtasida doimiy ma'lumot almashinuvi tizimini joriy etish, qo'shma tadbirlar – ota-onalar yig'ilishlari, oilaviy festivallar, milliy bayramlarni birgalikda nishonlash – o'tkazish foydali.

4. Yoshlar tashkilotlarining faoliyatini jonlantirish va samaradorligini oshirish, ularni ixtiyoriy va xayriya ishlariga, ekologik aksiyalarga, ijtimoiy loyihalarga faol jalb qilish. «Kamolot», «Barkamol avlod», yoshlar parlamenti, talabalar kengashlari kabi tashkilotlarning yoshlar orasidagi ta'sir doirasini kengaytirish, ularning faoliyatini zamonaviylashtirish, yoshlar qiziqishlari va ehtiyojlariga mos yangi loyihalar ishlab chiqish zarur. Yoshlarning o'z tashabbusi va ijodkorligi asosida qurilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlash, ular uchun moliyaviy, tashkiliy va axborot yordam berish muhim.

5. Ommaviy axborot vositalarida milliy qadriyatlar, siyosiy madaniyat va fuqarolik faolligini targ'ib qiluvchi maqsadli dasturlar yaratish va muntazam efirga uzatish. Yoshlar auditoriyasiga mo'ljallangan maxsus teledasturlar, radio ko'rsatuvlar, podcast seriyalari, vlog kanallar yaratish, bu yerda dolzarb siyosiy-ijtimoiy masalalar oddiy, tushunarli tilda, interfaol formatda muhokama qilinishi zarur. Tarixiy qahramonlar, zamonaviy muvaffaqiyatli yoshlar, ilg'or tajribalar haqidagi hujjatli filmlar, intervyular muntazam tayyorlanishi va keng tarqatilishi muhim.

6. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanib, yoshlarga siyosiy bilim berishning interfaol, qiziqarli va samarali shakllarini ishlab chiqish va joriy etish. Yoshlar uchun maxsus mobil ilovalar – fuqarolik huquqlari, saylov jarayoni, davlat tuzilishi haqida ma'lumot beruvchi, interaktiv testlar, viktorinalar, o'yinlar o'z ichiga olgan – yaratish maqsadga muvofiq. Onlayn-kurslar, vebinarlar, virtual ekskursiyalar, elektron kutubxonalar orqali yoshlarga qulay va zamonaviy formatda siyosiy bilim yetkazish zaruriyati mavjud. Ijtimoiy tarmoqlarda rasmiy davlat organlari, jamoat

tashkilotlari, taniqli olimlar va ma'rifatchilar tomonidan yuritilayotgan sahifalar orqali yoshlar bilan doimiy interfaol muloqot o'rnatish, ularning savollariga javob berish, munozaralar o'tkazish dolzarbdir.

7. Yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirish jarayonini doimiy monitoring qilish, samaradorligini baholash tizimini joriy etish. Muntazam so'rovlar, anketa tadqiqotlar, fokus-guruh muhokamalari o'tkazish orqali yoshlarning siyosiy bilim darajasi, qadriyatlar tizimi, fuqarolik faolligi dinamikasini kuzatib borish, muammoli sohalarni aniqlash va tuzatish choralari ko'rish zarur. Tadqiqot natijalari asosida ta'lim dasturlari, pedagogik usullar, tarbiyaviy tadbirlar rejasini takomillashtirish, ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish muhim ahamiyatga ega.

8. Oliy ta'lim muassasalarida yoshlar siyosiy ongini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirish, ushbu sohada mutaxassislar tayyorlash. Siyosatshunos, sotsiolog, pedagog olimlar tomonidan yoshlar muammolari, ularning siyosiy faolligi, qadriyatlar tizimi bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borish,

magistratura va doktoranturada tegishli mavzular bo'yicha dissertatsiyalar tayyorlash, ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar muntazam o'tkazish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlar asosida yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirish – bu nafaqat pedagogik, balki muhim davlat-ijtimoiy vazifa hisoblanadi. Bugungi yoshlar – ertangi kelajagimiz, mamlakatimizning taqdiri ularga bog'liq. Shu sababli, yoshlarni milliy qadriyatlar va demokratik tamoyillar ruhida tarbiyalash, ularning siyosiy madaniyatini oshirish, fuqarolik faolligini rivojlantirish davlat, jamiyat, oila va har bir fuqaroning muqaddas burchidir. Yuqorida taklif etilgan tadbirlarning amalga oshirilishi yoshlarning siyosiy ongini yanada yuksaltirishga, ularni faol, mas'uliyatli, vatanparvar, milliy qadriyatlarga sodiq va zamonaviy fikrlovchi fuqarolar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi va natijada mamlakatimizning barqaror rivojlanishi, demokratik islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, fuqaro jamiyatining mustahkamlanishiga munosib hissa qo'shadi.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2022. – 416 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 173 b.
3. Erkayev A. Ma'naviyat yulduzlari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 256 b.
4. Nishonova Z.T. Yoshlarning siyosiy madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2020. – 248 b.
5. Sodiqov M., Ergashev I. Milliy g'oya va ma'naviyat. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 312 b.
6. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-406-son. URL: <https://lex.uz/docs/-3026246>
7. Xasanov A.N., Qosimova D.M. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: Fan, 2021. – 320 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davr talabi. "Xalq so'zi", 2022-yil 29-iyun.
9. Jo'rayev N.B. Milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 224 b.
10. Tulenova G.D. Fuqarolik jamiyati shakllanishida yoshlarning o'rni // Pedagogika, 2021. 4-son. – B. 45-52.
11. Abdullayeva Sh.A. Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 180 b.
12. Toshmatov Sh.S. Milliy g'oya va mafkura asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 283.